

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLAR VIKTIMIZATSIYASI BILAN BOG'LIQ MASALALAR.

Sag'dullayev Shahzod

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11531391>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar viktimizatsiyasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish omillari hamda huquqiy yechimlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmaganlar, kiberbulling, tajovuz, zo'rvonlik, bola huquqlari, zararli axborot, javobgarlik.

ISSUES RELATED TO JUVENILE VICTIMIZATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

Abstract. This article describes the factors and legal solutions to the problems associated with juvenile victimization in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Minors, cyberbullying, aggression, Violence, Child Rights, harmful information, responsibility.

ВОПРОСЫ, СВЯЗАННЫЕ С ВИКТИМИЗАЦИЕЙ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.

Аннотация. В данной статье описываются факторы и правовые решения проблем, связанных с виктимизацией несовершеннолетних в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: несовершеннолетние, кибербуллинг, агрессия, насилие, права ребенка, вредная информация, ответственность.

Yurtimizda barcha bolalar zo'rvonlikdan qonun bilan himoyalangan. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining Qonunida bola huquqlarining kafolatlari tartibga solingan. Unga ko'ra Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Bundan tashqari bu yo'nalishdagi eng katta va xalqaro ahamiyatga ega hujjat sifatida amal qiluvchi 1924 Jenevada qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"da

bolalar huquq va majburiyatlari, uning shaxsiga nisbatan bo'ladigan munosabatlarga keng tarzda izoh berilgan¹.

Biroq shuni alohida e'tiborga olish kerakki, yuqorida keltirilgan javobgarlikni o'zida aks ettiruvchi JK va MJTK normalarining blanket dispozitsiyasi sifatida mazkur Qonunning 10-moddasi 4-xatboshisida davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshirishi belgilangan. Biroq, Qonun va normativ huquqiy hujjatlarda jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlik, shahvoniy shilqimlik tushunchalariga ta'rif berilmagan. Shuni inobatga olgan holda Qonunining **"Asosiy tushunchalar"** deb nomlangan 3-moddasini tadqiqot ishida ko'rsatib o'tilgan zo'ravonlik turlarini aniqlashtiruvchi tushunchalar bilan to'ldirish lozimdir.

Konstitutsiyamizning 65-moddasi bolalik, oila davlat himoyasida ekanligini; bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni tarbiyalash– ota-onalarning ham huquqi, ham majburiyati ekanini e'lon qiladi. Mazkur sohadagi oilaviy-huquqiy me'yorlar aniq ta'riflanmagan, ota-onalar farzandlarini tarbiyalashi, ularning sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy rivojlanishi haqida jon kuydirish huquqi va majburiyatiga egalar. Ota-onalar zimmasiga farzand tarbiyasi bo'yicha majburiyatni yuklash bilan bir vaqtda boladan ota-onaning ko'rsatmalariga, agar ular bola manfaatlariga mos kelsa, amal qilishlarini talab qilish zarur. Ota-onalar ham, farzandlar ham mazkur majburiyatlarni lozim darajada bajargan holdagina yakuniy ijobiy natijaga erishish mumkin. Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, bu yerda ota-onalik majburiyatlarni muntazam, ya'ni bir necha marotaba bajarmaslik, farzandlari haqida g'amxo'rlik qilmaslik (ovqatlantirmaslik, zarur kiyim, tibbiy yordam bilan ta'minlamaslik – xullas bolaning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondirish uchun xech nima qilmaslik) nazarda tutilgan. Bu ma'naviy va jismoniy rivojlantirish, ijtimoiy jihatdan foydali mehnatga tayyorlash haqida qayg'urmaslikda, ta'lim olishiga bepisandlik bilan munosabatda bo'lishda ifoda bo'lishi mumkin². Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida bolalar o'rtasida tarqatilishi taqiqlangan yoki cheklangan axborot mahsulotlarining turlari keltirib o'tilgan. Bular

¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti ma'lumotlariga asosan ushbu konvensiya 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasi da qabul qilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda 757-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan. Manba: departamentning rasmiy sayti.

² Limber, S. P., Olweus, D., & Wang, W. (November, 2012). What we are learning about bullying: trends in bullying over 5 years. Paper presented at the meeting of the International Bullying Prevention Association. Kansas City, MO.

bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sog'lig'iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga, o'z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ'ib qilishga undaydigan, pornografiya xususiyatiga ega bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan, erkak va ayol o'rtasidagi jinsiy munosabatlarni tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan va hokazo axborot mahsulotlaridir. Qonunning 24-moddasida esa, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2018 yildagi 848-son Qarori bilan tasdiqlangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlashga doir ma'muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, internet tarmog'idan jamoaviy foydalanish punktlarining egalari o'z foydalanuvchilariga yoshga oid toifaga mos kelmaydigan axborotdan va taqiqlangan axborot mahsulotidan foydalanishga imkoniyat bergani uchun javobgar bo'ladi. Biroq, aynan qanday tartibda javobgar bo'lishlari belgilab berilmagan.

Bugungi kunda, bolalar ongiga ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi axborot mahsulotlarining ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilishi bolalarni o'z joniga qasd qilishlarining yoki boshqa g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishlarining omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday noo'rin holatlarni bolalarning o'limiga olib kelishi tashvishli holdir. Misol uchun, "Do'stlik" tumanida yashagan, 2008 yilda tug'ilgan voyaga yetmagan S.B. yashash xonadoni kirish eshigi tutqichiga ro'moli bilan bo'yin sohasidan o'zini osib, o'z joniga qasd qilgan. Mazkur holat yuzasidan o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruv harakatlari davomida S.B. "Sevimli" telekanalida "So'yla qora dengiz" nomli turk teleserialining soat 09:00 larda efirga uzatilgan navbatdagi qismida serial qahramoni o'z joniga qasd qilib, tirik qolganligi sahnasini tomosha qilganligi va bu haqda onasidan o'z joniga qasd qilgan taqdirda tirik qolish mumkinligi haqida serial misolida so'rganligi, onasining bu faqat kinolarda bo'lishi mumkinligi to'g'risida tushuntirganligiga qaramasdan, namoyish etilgan sahnani o'z jonida sinab ko'rib, S.B. o'z joniga qasd qilganligi aniqlangan. Ushbu holatni o'rganish maqsadida serialning tegishli qismi qayta ko'rib chiqilganda, haqiqatdan ham serial qahramonining o'z joniga qasd qilish sahnalari mavjudligi ma'lum bo'lgan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2018 yildagi 848-son Qarori bilan tasdiqlangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlashga doir ma'muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, bolalar o'rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti tele va radiouzatish orqali soat 6 dan 22 gacha tarqatilishi taqiqlanadi.

Yoki, “Aqlvoy” bolalar telekanalida efirga uzatilgan multfilmlarda 2 ta holatda uyatsiz buzuq harakatlar sodir qilishga undovchi hamda erkak va ayol oʻrtasidagi ishqiy munosabatlarni tasvirlovchi sahnalarning namoyish etilishi ijtimoiy tarmoqlarda oʻrinli eʼtirozlarga sabab boʻlgan³.

Yuqorida qayd etilgan taqiqlangan axborot mahsulotlarining bolalar orasida tarqatilishi kelgusida ular ishtirokida “oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (JK 128-m)” yoki “oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (JK 129-m)” kabi jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelishi ehtimolidan holi emas. Bu esa, oʻz navbatida, voyaga yetmagan qizlarning erta homilador boʻlishlariga va erta tugʻruq holatlariga zamin yaratadi.

(Maʼlumot uchun: joriy yilning 7 oyida JKning 128-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar soni 177 (106) tani tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga oshgan. JKning 129-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar soni esa, 51 (30) tani tashkil etib, 21 taga koʻpaygan. Oʻsmir qizlar oʻrtasida 82 (39) ta erta tugʻruq holatlari qayd etilib, 43 taga ortgan)⁴.

Tahlillar, bolalarning jismoniy, ruhiy, maʼnaviy hamda ahloqiy rivojlanishiga axborot orqali zarar yetkazilishini, ular oʻrtasida gʻayriijtimoiy xatti-harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish maqsadida, bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun aniq javobgarlikni belgilovchi norma kiritishni taqozo etmoqda. Voyaga yetmaganlarning bunday viktimizatsiyalashuviga qarshi kurashda ota-onalar va qonuniy vakillar hamda davlat idoralar qanday yordam berishi mumkin?

Bunday sabablarga huquqiy yechim sifatida Oʻzbekiston Respublikasining MJTKga voyaga yetmaganlarni zararli axborotdan himoya qilishda axborot taqdim qiluvchi tegishli idoralardan tashqari ota-onalarni javobgar qilish lozimdir. Chunki yuqorida keltirilgan koʻngilsiz hodisalarni oldini olishda ota-onalar ham qonun oldida masʼuldirlar.

Bolaga nisbatan zoʻravonlik qoʻllanilishining oldini olish zoʻravonlik bilan bevosita bogʻlik boʻlgan qonunlar chegarasidan tashqarida boʻlgan masalalarni ham qamrab oluvchi huquqiy islohotlarni talab etadi. Qonuniy va milliy-siyosiy chora-tadbirlar doirasi ham bolalar orasida zoʻravonlikning keng qamrovli maydonda kamayishini taʼminlash uchun har qanday sabablariga qarshi kurashishi hamda himoya qiluvchi omillarni kuchaytirishi lozim. Undan tashqari Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan YUNISEF bilan hamkorlikda olib borilayotgan qonunchilik islohotlari boʻyicha idoralararo ekspertlar guruhi

³ 5 <https://t.me/TYUZBEK/17971> , <https://t.me/TYUZBEK/19374>

⁴ Маълумот Ўзбекистон Республикаси Бosh прокуратураси томонидан тақдим этилган. 2022 йил апрель.

Jinoyat va Fuqarolik protsessual kodekslariga, jumladan, jabrlangan bolalar va guvoh bolalarni himoya qilish, qonuniy kafolatlar va qonun bilan muammoga uchragan bolalar uchun ozodlikdan mahrum etishni muqobil usullarni kengaytirishni o'z ichiga oladi⁵.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa o'rnida aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunining "**Asosiy tushunchalar**" deb nomlangan 3-moddasini quyidagi tushuncha bilan to'ldirish lozimdir:

"Kiberbulling – bu biror shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan boshqalarga nisbatan zamonaviy axborot texnologiyalar, mobil telefon, boshqa aloqa vositalari va internetdan foydalanib sodir etiladigan takrorlanadigan og'zaki yoki ruhiy tazyiq (shilqimlik). Tazyiq (shilqimlik) ko'p shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, masxara, haqorot qilish, tahdid, mish-mish tarqatish, bir odamga qilingan jamoaviy hujumni telefonga tasvirga olish, yoqimsiz izohlar qoldirish yoki tuhmat so'zlarni tarqatish.

Bundan tashqari bizningcha amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini "Bolalarning rivojlanishi va sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish" to'g'risidagi qonunni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi quyidagi 47⁹-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

47⁹-modda. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish – "Bolalar o'rtasida ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot mahsulotlarini tarqatishning belgilangan talablarini buzish" kabi dispozitiv normalar bilan to'ldirish.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti ma'lumotlariga asosan ushbu konvensiya 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasi da qabul qilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda 757-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan. Manba: departamentning rasmiy sayti.
2. Limber, S. P., Olweus, D., & Wang, W. (November, 2012). What we are learning about bullying: trends in bullying over 5 years. Paper presented at the meeting of the International Bullying Prevention Association. Kansas City, MO.
3. <https://t.me/TYUZBEK/17971> , <https://t.me/TYUZBEK/19374>

⁵ www.unicef.org

4. Маълумот Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси томонидан тақдим этилган.
2022 йил апрель.
5. www.unicef.org